



## NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 30-oktabr

196-5-74-Q/24

Nurota tumani hokimligi

### **Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yilda ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash hamda zaxiraga qo'yish to'g'risida**

Nurota tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan 2024-yil 4-oktabrdagi 18/07-01/14-1349-sonli xat orqali taqdim etilgan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yilda ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash hamda zaxiraga qo'yish to'g'risidagi umumlashtirilgan takliflarni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 38-39-moddalari (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y, 03/20/642/1396-son), "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasi (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son), "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 14, 17-moddalari (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.08.2020-yil, 03/20/633/1187-son), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.07.2018-yil, 07/18/3856/1515-son), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-sonli "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-401-son (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-yil, 03/20/642/1396-son) qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017-yil, 09/17/965/0393-son) asosan 2025-yilda ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 25-, 27-moddalariga muvofiq,

## Q A R O R Q I L A M A N:

1. Nurota tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan 2024-yil 4-oktabrdagi 18/07-01/14-1349-sonli xat orqali taqdim etilgan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yilda ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash hamda zaxiraga qo'yish to'g'risidagi umumlashtirilgan takliflar inobatga olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 38-39-moddalariga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi xodimlarining ro'yxatdagi o'rtacha soni yigirma nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilotlarda xodimlarining ro'yxat bo'yicha umumiy sonidan 109 kishini, shu jumladan:

- o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalari uchun 7,3 foiz 8 kishi;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar uchun va "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 80,7 foiz – 88 kishi;

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun 2,7 foiz – 3 kishi,

- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 4,6 foiz - 5 kishi;

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun uchun - 0

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun 1,9 foiz - 2 kishi;

- odam savdosidan jabrlanganlar uchun 1 foiz-1 kishi;

- Oilaviy(maishiy) zo'ravonlik natijasida jabrlangan xotin-qizlar 1,8 foiz 2 kishini tashkil etishi belgilansin.

2. Korxonalar, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi

to'g'risida"gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 1-bandida ko'rsatilgan ish o'rinlarini belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo'yilishini) ta'minlash;

ish joylari sanitariya - gigiena normalariga va xodim o'z mehnat majburiyatlarini bemalol bajarishini ta'minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo'lishini ta'minlash;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10-aprel sanasidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo'yish) to'g'risidagi, ya'ni har bir kvota toifasi bo'yicha ish o'rinlari band qilib qo'yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma'lumotlarni va buyruq nusxalarini tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga taqdim etilishini ta'minlash topshirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni 38-39-moddalariga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga eng kam miqdoridagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar har bir yaratilmagan ish joyi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlik belgilanganligi inobatga olinsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 21-bandiga asosan, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish bo'yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarima to'laganlik tashkilotni band qilib qo'yiladigan ish o'rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmasligi inobatga olinsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining "O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 2019-yil 31-maydagi 3163-sonli buyrug'iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, "Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan ish joylarisonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to'lash" to'g'risidagi talabi inobatga olinsin.

6. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish

o'rinlarining eng kam sonini belgilash bo'yicha tuzilgan ishchi komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman hokimligi devonxona mudiri (Z.Bobojev) uch kun muddatda mazkur qarorning ijrosini ta'minlash uchun 2-ilovada ko'rsatilgan korxonalar, tashkilot va muassasalariga yetkazilishini ta'minlasin.

8. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (I.Amonov) ushbu qarorning bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishini hamda har chorak yakuni bilan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimligiga ma'lumot taqdim etib borilishini ta'minlasin.

9. Tuman "Nurnoma" gazetasi (L.Bozorov) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini, tuman hokimligi bosh yuriskonsul'ti (E.O'ralov) mazkur qaror tuman hokimligi veb-saytiga joylashtirilishini hamda davlat hisobiga olinishi uchun viloyat adliya boshqarmasiga yetkazilishini ta'minlasin.

10. Mazkur qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran tuman hokimining 2023-yil 31-oktabrdagi "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo'yish to'g'risida"gi 129-5-74-Q/23-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Bo'riyev zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Tuman hokimi**



**A.Fayziyev**

Nurota tuman hokimining  
2024-yil 30-oktabrdagi  
196-5-74-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**Tumanda “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash” bo‘yicha tuzilgan ishchi komissiya**

**T A R K I B I**

<b>T/R</b>	<b>F.I.SH</b>		<b>LAVOZIMI</b>
<b>1</b>	A.Bo‘riev		Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Komissiya raisi
<b>2</b>	I.Amonov		Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, komissiya raisi o‘rinbosari
<b>A‘ZOLARI</b>			
<b>3</b>	Sh.Ismoilov		Tuman statistika bo‘limi boshlig‘iv.v.b
<b>4</b>	E. O‘ralov		Tuman hokimligi bosh yuriskonsulti
<b>5</b>	S.Haydarov		Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri

Nurota tuman hokimining  
2024-yil 30-oktabrdagi  
196-5-74-Q/24-son qaroriga  
2-ilova

T/r	Korxonalar, tashkilot, muassasalar nomi	Xodimlar ning ro'yxatdagi o'rtacha soni	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar ni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini eng kam soni	Shu jumladan						
				o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bo'lgan yolg'iz ot yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning otalariga	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari ni hamda texnikumlarini, kasbga ega bo'lgan yoshlar, "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muhtim ddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar	Nogironligi bo'lgan shaxslar	Pensiyada yoshi da shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanganlar
1	1 maktab	60	1				1			
2	2 maktab	65	1		1					
3	3 maktab	74	1		1					
4	4 maktab	60	1		1					
5	5 maktab	60	1		1					
6	6 maktab	75	1		1					
7	7 maktab	59	1		1					
8	8 maktab	33	1		1					
9	9 maktab	61	1		1					
10	10 maktab	44	1		1					
11	11 maktab	68	1		1					
12	12 maktab	44	1		1					
13	13 maktab	65	1		1					
14	14 maktab	53	1		1					
15	15 maktab	38	1		1					
16	16 maktab	37	1		1					
17	17 maktab	34	1		1					
18	18 maktab	133	1		1					

19	19 maktab	75	1		1						
20	20 maktab	55	1		1						
21	21 maktab	29	1	1							
22	22 maktab	103	1	1							
23	23 maktab	44	1		1						
24	24 maktab	36	1		1						
25	25 maktab	41	1		1						
26	26 maktab	40	1		1						
27	27 maktab	95	1				1				
28	28 maktab	25	1		1						
29	29 maktab	42	1		1						
30	30 maktab	31	1		1						
31	31 maktab	40	1		1						
32	32 maktab	88	1		1						
33	33 maktab	46	1		1						
34	34 maktab	95	1		1						
35	35 maktab	43	1		1						
36	36 maktab	27	1		1						
37	37 maktab	30	1		1						
38	38 maktab	35	1		1						
39	39 maktab	28	1		1						
40	40 maktab	44	1		1						
41	41 maktab	34	1		1						
42	42 maktab	76	1		1						
43	43 maktab	41	1		1						
44	44 maktab	28	1		1						
45	45 maktab	42	1		1						
46	46 maktab	30	1		1						
47	47 maktab	34	1		1						
48	48 maktab	42	1				1				
49	49 maktab	31	1		1						
50	50 maktab	54	1		1						
51	51 maktab	49	1		1						
52	52 maktab	37	1		1						
53	53 maktab	34	1		1						

54	1 maktabgacha ta'lim tashkiloti	49	1		1						
55	2 maktabgacha ta'lim tashkiloti	47	1		1						
56	3 maktabgacha ta'lim tashkiloti	33	1		1						
57	4 maktabgacha ta'lim tashkiloti	41	1		1						
58	5 maktabgacha ta'lim tashkiloti	31	1		1						
59	6 maktabgacha ta'lim tashkiloti	43	1		1						
60	7 maktabgacha ta'lim tashkiloti	52	1		1						
61	8 maktabgacha ta'lim tashkiloti	45	1		1						
62	9 maktabgacha ta'lim tashkiloti	29	1		1						
63	10 maktabgacha ta'lim tashkiloti	35	1		1						
64	12 maktabgacha ta'lim tashkiloti	30	1		1						
65	13 maktabgacha ta'lim tashkiloti	40	1		1						
66	15 maktabgacha ta'lim tashkiloti	27	1		1						
67	16 maktabgacha ta'lim tashkiloti	41	1		1						
68	17 maktabgacha ta'lim tashkiloti	27	1		1						
69	18 maktabgacha ta'lim tashkiloti	28	1	1							
70	19 maktabgacha ta'lim tashkiloti	26	1		1						



71	20 maktabgacha ta'lim tashkiloti	23	1	1							
72	21 maktabgacha ta'lim tashkiloti	25	1		1						
73	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	64	1		1						
74	Obodonlashtirish boshqarmasi	187	2		1				1		
75	Sanitariya Epidemologiya ososiyshitalik nazorat markazi	58	1		1						
76	Ixtisoslashtirilgan san'at maktab internati	96	1		1						
77	Tibbiyot birlashmasi	880	15	1	10		2				2
78	Bolalar o'smirlar sport maktabi	98	1		1						
79	5 sonli musiqa va san'at maktabi	60	1		1						
80	Barkamol avlod bolalar markazi	51	1		1						
81	Madaniyat va sport ishlari bo'limi	54	1		1						
82	2-son kasb-hunar maktabi	89	1		1						
83	Muruvat uyi	189	1		1						
84	Nurota ishga marhamat monomarkazi	59	2	1	1						
85	Davlat o'rmon ovchilik xo'jaligi	42	1				1				

86	Yo'llardan foydalanish unitar korxonasi	157	1							1	
87	Axborot kutubxona markazi	22	1	1							
88	1-son kasb hunar maktabi	68	1		1						
89	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	30	1		1						
90	Istiqlol qorako'l nasilchilik MCHJ	135	1						1		
91	Qizilcha qorako'l nasilchilik M ЧЖ	55	1			1					
92	Nurota qorako'l nasilchilik M ЧЖ	246	1	1							
93	Davlat o'rmon xo'jaligi	40	1			1					
<b>Jami</b>		<b>6039</b>	<b>109</b>	<b>8</b>	<b>88</b>	<b>3</b>	<b>5</b>	<b>0</b>	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>2</b>